

---

---

BEHZOD BIYBOLAYEV

---

---

# ISHQ VASFİ

*She'rlar*



«ADIB»  
Тошкент – 2014

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')7

B 66

**Mas'ul muharrir:  
Alisher Nazar**

*Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Yoshlar bilan ishlash bo'limi tomonidan  
nashrga tavsiya etilib, «Ijod» fondi tomonidan  
moliyalashtirilgan.*

**Biybolayev, Behzod**

B66 Ishq vasfi: she'rlar/B.Biybolayev. – Toshkent:

«ADIB», 2014. – 48 b.

ISBN 978-9943-4277-3-0

**UO'K: 821.512.133-1**

**KBK: 84(5O')7**

ISBN 978-9943-4277-3-0

© B. Biybolayev, 2014

© «ADIB» nashriyoti, 2014

---

## MO‘JAZ MO‘JIZA

“Birinchi kitobim” ruknida chop etila-yotgan kitoblar yurtimiz adabiy hayotida muhim voqelikka aylandi. Ayni shu xayrli amal tufayli o‘nlab yosh qalamkashlarning to‘plamlari keng o‘quvchilar ommasiga yetib bordi va, tabiiyki, bugun o‘z aks-sadosini berayotir.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan har yili o‘tkazib kelinayotgan respublika yosh ijodkorlar seminarida o‘nlab yangi nomlar, yosh iste’dodlar kashf etilmoqda. She’riyat, nasr, dramaturgiya, publisistika, bolalar adabiyoti, adabiyotshunoslik kabi qator janrlarda muvaffaqiyat bilan qalam tebratayotgan yosh ijodkorlarning eng yaxshi asarlari muttasil nashr etib kelinmoqda. Jumladan, 2013-yilda Do‘rmon ijod uyida bo‘lib o‘tgan yosh ijodkorlar seminarida ham

---

*ana shunday qo'lyozmalar saralab olindi  
va ular jajji kitoblar – mo'jaz mo'jizalar  
sifatida siz muhtaram kitobxonlar hukmiga  
havola qilinmoqda.*

*Bu ruknda nashr etilayotgan kitoblar  
adabiyotga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va  
g'amxo'rlikning samarasidir. O'ylaymizki, ya-  
ratilgan bu imkoniyatlar yosh ijodkorlarning  
baland parvozlariga zamin vazifasini o'taydi.*

## **SHUKRONA**

Shu zaminda men dunyoga kelgan vaqtim  
Peshonamda yarqiragan ekan baxtim.  
Xudo bergan taqdirdagi toj-u taxtim –  
Shu yurt uchun, shu el uchun yashagayman,  
Yuragimdan bitta qo'shiq boshlagayman.

Bobolarim duo qilib kelgan elim,  
Ayollarin Havo bilib kelgan elim,  
Ko'hna kuyda navo bo'lib kelgan elim,  
Shu yurt uchun, shu el uchun yashagayman,  
Yuragimdan bitta qo'shiq boshlagayman.

Yelkalarda ajdodlarim shoni bordir,  
Tomirida Alpomishlar qoni bordir.  
Kitoblarda marvaridlar koni bordir.  
Shu yurt uchun, shu el uchun yashagayman,  
Yuragimdan bitta qo'shiq boshlagayman.

Shu kun uchun, shu on uchun quchoq ochib,  
Qancha tarix dovonidan keldi oshib.  
Xudoyimning ne'matidan to'lib-toshib,  
Shu yurt uchun, shu el uchun yashagayman,  
Yuragimdan bitta qo'shiq boshlagayman.

## **BAHOR**

Keling, yomg‘irlarim,  
Boshimga yog‘ing,  
Ko‘zlarimdan oqqan  
Yoshimga yog‘ing.  
Seni mushtoq kutdi  
Yuragim bedor,  
Sen meni sog‘inib  
Keldingmi, bahor?!

Toshkentning sershovqin  
Bozorlaridan,  
Xilvatdagi jim-jit  
Mozorlaridan  
Otamning qirdagi  
Bedazoridan  
Yoki birov bilmas  
Dil ozoridan  
Xat-xabar olgani  
Keldingmi, bahor?!

Yoki keltirdingmi  
O‘tmishdan xabar?  
Kimlarga yor bo‘ldi

Qoraqosh dilbar?  
Yoriga yor bo'lib  
Tiniqlashdimi  
Va yo rangi battar  
Siniqlashdimi?  
Hijronlar kurtaklab  
Barq urar takror,  
Uni to'xtatgani  
Keldingmi, bahor?!

Men quvonib aytgan  
Qo'shiqlardan ayt,  
So'ngra qishlog'imga  
Bir bor borib qayt.  
Bug'doyzorlarimni  
Mehringga o'ra,  
Bobom ekib ketgan  
Tutdan hol so'ra!

Toshkent va Bekobod –  
Yuz chaqirim yo'l,  
Sen ota shahrimga  
Eltar ko'prik bo'l...  
Osonmas-da dilni  
Etmoqlik bekor,  
Yo menga yordamga  
Keldingmi, bahor?!

## KO'NGIL SOHILI

Ko'ngil sohiliga yetkuncha, ey dil,  
Hali ko'p yurgaymiz, yuz yilmi, ming yil.

Yo'lda jafolardan navo olurmiz,  
Qaytgan vafolardan safo olurmiz.

Olis manzil sari shaylanajakmiz,  
Parqu bulutlarga aylanajakmiz.

Kimdir bosib o'tgan sariq maysadan  
Biz davo olurmiz qayta-qaytadan.

Manzilga yetmoqqa yetmasa umr,  
Bizdan so'ng shu qalam-qog'oz yurgaydir.

So'zlar ko'paygaydir so'z sarfimizdan,  
Manzil yaqinlashgay har harfimizdan.

O'tinchim – yurakni quvvatlab turgil,  
Ko'ngil sohiliga yetkuncha, ey dil.

## BIR XAT BAXTDAN NISHONADIR

Bir xat – baxtdan nishonadir,  
Menga xat yozmay qo‘ydingiz.  
Ko‘nglim qog‘ozdek yonadir,  
Nega xat yozmay qo‘ydingiz?

Mana qog‘oz va atirgul,  
Yuragim chinni kosadir.  
Xatingizning har satri gul,  
Har satrini baxt yozadir.

Eski ahdlar eskirmadi,  
Eski dil battar yonadir.  
Esimga hech “es” kirmadi,  
Eski ishqim parvonadir.

Sochingizda gul unsa ham,  
Qoshingiz o‘sha-o‘shadir.  
Kiprigingiz ho‘l bo‘lsa ham  
Hamon qaboqlar oshadir.

Nega xat yozmay qo‘ydingiz?  
Mana qog‘oz – bir varaq gul.  
Kelmagaysiz tushlarimga,  
Nega yo‘llarimiz oq gul?

Yilning eng shirin faslidan  
Atirgullar terib kelay.  
O‘sha gullar novdasidan  
Qalam yo‘nib sizga beray.

Baxt ramzidir bu atirgul,  
Xat yozishga ajrating vaqt.  
Xatingizning har satri – gul,  
Xatingizning har satri – baxt...



## BINAFSHA

Binafsha, jannatning giyohimisan,  
Yo qora dunyoning siyohimisan?  
Va yoki bahorning bu zamin bilan  
Birgalashib qilgan gunohimisan?

Binafsha, bag'ringga botgim keladi,  
Qaddingga tikilib yotgim keladi,  
Labingdan shudringlar totgim keladi.  
Sen pari qizlarning dudog'imisan?

Ko'ksingdagi chandiq qishning izimi,  
Yo bevafo sanchgan nishning izimi?  
Qishi bilan behol sezib o'zini  
Bemor qizning tortgan oh-vohimisan?!

Bir sirni aytaman, qulq solgin jim:  
Men sevgimdan kechib ko'zni yumgandim.  
Ayb qilib, so'ng esa yerga ko'mgandim,  
Shundan unib chiqqan gunohimmisan?!

## HIKOYA

Go‘zal edi qizgina,  
Sochlari edi mayin.  
Qayrilma kipriklari  
Ataylab chizgandayin.

Eski maktab bog‘ida  
Yangi ertak to‘qirdik.  
Qo‘g‘irchoq yasab loydan,  
So‘ngra nikoh o‘qirdik.

Qo‘llarini ushlasam  
Boshini egar edi.  
Majnuntolning novdasi  
Ko‘ksiga tegar edi.

Go‘zal edi qizgina,  
Qo‘li ham edi mayin.  
Essiz-a, essizgina,  
Bo‘y bo‘ylardik kun sayin.

Tunlari uyqu qochib,  
Buzilgandi halovat.  
Bizni maktab bog‘idan  
Haydagandi balog‘at.

Arazlashdik shundan so‘ng,  
Dardi bedavo bo‘ldik.  
U o‘ziga, men esa  
She’rga mahliyo bo‘ldik.

Keyin bilmam, ne bo‘ldi,  
Balki baxtga yetgandir.  
Ha, aytgancha, o‘sha bog‘  
Kesilib ham ketgandir...



## QO'SHNI QIZCHA

Qo'shni qizcha, ajoyib qizcha,  
Ko'ylakchasi chiroyi gulzor.  
Ko'zi misli yonar yulduzcha,  
Kovushida tugmachasi bor.

U ko'chadan yugurib o'tsa  
Yellar xayol surib qoladi.  
Qadamining ovozi duk-duk  
Yuragimda urib qoladi...

Tashlab qo'yar kunda ko'z qirin,  
Ko'z-ko'z etib ko'ylakchasini.  
Yarimlatib teshik paqirin  
Namxush etar yo'lakchasini.

Tun. Supada yotaman yolg'iz,  
Qo'shni uyga botib ketar oy.  
O'sha damda ajoyib qizcha  
Oy-la suhbat qurar, hoynahoy.

Qo'shni qizcha, ajoyib qizcha,  
Shirin xayol suraman boz-boz.  
Men sevishni bilmayman hali,  
Yoqtirishni bilaman, xolos ...

## SEVGI

Layli ishqisi ertakmidi,  
Yo majnunlar ermakmidi?  
Yolg'ondakam turmakmidi  
Qulog va ko'z aro sevgi?

O'ylayverib tolganmisan,  
Yo'l yarmida qolganmisan?  
Dilga kamand solganmisan?  
Yarim ko'ngli yara sevgi...

Yo'liqdingmi xarobaga,  
Ishqdan yuragi poraga?  
Kumush kelgan arobaga  
Bugun bir bor qara, sevgi.

Tinib-tinchib guldiragi,  
Sinib ketgan g'ildiragi.  
Sevdirib so'ng o'ldiradi,  
O'ldiradi chala sevgi...

Ko'zlaringni bosmasin xas,  
Olib turgin sen ham nafas.  
Men ham yashab turay birpas,  
Yurakka o't qala, sevgi!..

## TAQQOS

Qattiq edim misli bir xarsang,  
Suyanganim tog'day or edi.  
O'sha orning ortida, bilsang,  
Menda ham bir yurak bor edi.

Chaqmoq sevgi yashardi tanda,  
Tun qo'ynida cho'g'day yonardim.  
Men yaxshi she'r yozolmasam-da,  
Seni yaxshi ko'ra olardim!

O'sha kecha yomg'ir, qor edi,  
Dunyo ketdi qorishib loyga,  
Yuragimda chaqmoq bor edi,  
Lek yetmadi sen turgan joyga.

Yolg'iz yonish botarkan og'ir,  
Tushlaringda ko'rasan kimni?  
Bilasanmi, shu chaqmoqlarga  
Berib qo'ydim men yuragimni.

## TASKIN

Sening xayoling-la oqargan tongda,  
Uyg'oq jilg'alarga mehr ulashdim.  
Navqiron nihollar gullagan chog'da  
Dunyo menga, men dunyoga yarashdim.

Bir ajib tonglarim otdi bahordek,  
Maysalarni cho'g'day ko'zga qaratdi.  
Tabiatning menga tuhfasi bordek  
Bir go'zal, bir go'zal sanam yaratdi.

Qish kabi musaffo, tiniq edi u,  
Sochiga qo'nmoqqa qorlar talashdi.  
Qarshisida dunyo yig'ladi yum-yum,  
Menga esa hatto hijron yarashdi...

## YIGIRMA BIR YOSHGA...

Ko'chamdan o'tadi sochi sochilib,  
Ko'nglim ko'chasiga bo'ylamas hargiz.  
Ko'zimning oldida gulday ochilib,  
Yigirma bir yoshga to'ladi bir qiz.

Tonglar otar, tushim kelmas o'ngidan,  
Umr esa kutmay o'tadi g'iz-g'iz.  
Bu oltin davrimning oxir, so'ngida  
Yigirma bir yoshda bo'ladi u qiz.

Uning ko'zlarida mingta yulduz bor,  
Ishqida har yulduz yonadi yolg'iz.  
Har bahorda takror... va yana takror  
Yigirma bir yoshga kiradi u qiz.

Bu yil o'sha qizning bo'ylari yetgan,  
Bu yil u balog'at, durkun yoshdadir.  
Yurak Bekobodga uloqib ketgan,  
Ko'ngil hamon o'sha qaro sochdadir.

Yurak qoni toshib, sig'may tomirga,  
Yigirma bir yoshga to'lmoqda u qiz.  
Mening yuragimda butun umrga  
Yigirma bir yoshda qolmoqda u qiz!

## TOMCHILAR

Tomchilaydi tomchilar,  
Yuragimga sanchilar.  
Men yoqtirgan qizlarning  
Hammasi yolg'onchilar.

Tomchilaydi tomchilar,  
Hijron meni qamchilar.  
Asal yegan yangalar  
Hammasi aldamchilar...

Boshga mushkul ish tushdi,  
Qalin qirov, qish tushdi.  
Qonim sovib tomirda,  
Yurakkinam uvishdi.

Qizi qurg'ur sho'x edi,  
Qizil kiygan cho'g' edi.  
Bir bor uzun sochiga  
Qo'l urganim yo'q edi.

Tomchilaydi tomchilar,  
Zarbdan yurak yanchilar.  
Ishq o'yinin o'ynagan  
Bu qizlar – g'irromchilar...

Hozircha bechoraman,  
Bir kun qaytib boraman.  
O'shanda chaqmoq bo'lib,  
Yuragini yoraman!

Tomaverib tomchilar,  
Oxir ko'nglim yanchdilar.  
Eng chiroyli qizlarning  
Hammasi g'irromchilar.



## ASL USTOZ

Asli shoirlarga ustoz kerakmas,  
Kerakmas nasihat ko‘pi-yu ozi.  
Yuragi dardlarin ko‘tarolsa bas,  
Ko‘ngildir ularning asli ustozi!

Hayot tashvishini unutsa birpas,  
Hatto ilhom berar qushlar parvozi.  
Ulug‘ shoirlarga qilsa-da havas,  
Aslida ko‘ngildir shoir ustozi!

Hayoti ko‘ziga tashlaganda xas,  
Hatto chiqmay qolsa ba’zan ovozi,  
Kurashga undaydi uni basma-bas,  
Asli ko‘ngil bo‘lgan shoir ustozi!

Shoirlik shoirga meros qolganmas,  
Dardini oladi qalam-qog‘ozi.  
Navoiy ustozi Lutfiy bo‘lganmas,  
Asli ko‘ngil bo‘lgan uning ustozi.

Ustoz gaplarimga qilmagay araz,  
Chunki bu so‘zlar ham ularning rozi.  
Ko‘nglimda yo‘q sizga zarracha g‘araz,  
Asli ko‘ngil ekan shoir ustozi!

\* \* \*

Ketayapmiz yillar oralab,  
Tekkizmasdan toshga sabrni.  
Biz sen bilan ikkiga bo'lib,  
Tortayapmiz bitta jabrni.

Xayollangan kunning ketidan  
Qoshlarini qoraytirar shom.  
Ikkimizdan bir savol so'rab,  
Imtihonin boshlaydi oqshom.

Devor bo'ylab boradirman jim,  
Darichangning ko'zlarida mung.  
Derazangni chertsa xayolim,  
Qalqib ketmaydimi yuraging?!

Nahot yurak mangu yo'l qarar...  
Derazangga tomchilaydi yosh.  
Nahot endi boshimiz yorar,  
Muhabbatning qo'lidagi tosh...

## **BALKI...**

Balki siz hech qachon meni sevmassiz,  
Lekin uzoqlashib qayga ketaman?  
Bugun orzularning bo'yidan mastsiz,  
Men esa sevishda davom etaman!

Siniq oy har tunda tig'ini charxlab  
Nur uchun jonimni qilganda ta'ma,  
Olis-olislardan turib, erkalab,  
Men sizni sevishda davom etaman ...

Quyosh yer yuzining musavviridir,  
Uni deb bo'y cho'zar dunyoi chaman.  
Nomimni toptasa qachondir, kimdir,  
Shunda ham sevishda davom etaman!

Sovuq qish ortimdan etganda ta'qib,  
Qor bo'lib tog'larga singib ketaman.  
Bir kun poyingizda jilg'adek oqib –  
Men sizni sevishda davom etaman!

Do'stu dushmanimga bildirmayman-u,  
Sizning qoshingizda boshim egaman.  
Sizni sevmoqlik bu – eng ajib tuyg'u,  
Siz borsiz – sevishda davom etaman!

Balki siz hech qachon sevmaysiz meni,  
Sizdan ko'ngil uzib qayga ketaman?  
Taqdir keltirsa ham boshimga neni,  
Men sizni sevishda davom etaman!

### MUDDAO

Bir kun kelib men ekkan nihol  
Qiyg'os bo'lib gullaydi, ona.  
Kun keladi, buyuk yo'llarga  
Xudo meni yo'llaydi, ona.

Yuribman-da, shahardaman, tinch...  
Oq tunlari qolib ketsam kech,  
Xavotirlar olib yurmang hech,  
Meni Xudo qo'llaydi, ona.

O'tmishimga tutsam-da motam,  
Tik qaddimni egolmaydi g'am.  
Yomonlarga yomonman men ham,  
Yomonlar-chi, o'lmaydi, ona.

## SITORA

Sitora, Sitora, mehribonim bo'l,  
Jonomni berayin yoki jonom bo'l.

Tunlar bor sirini ochgani chog'da  
Kelgin, uchrashaylik nurafshon bog'da.

Qara, maysalar ham shivirlayotir,  
Ular ham kelishing zor kutayotir.

Qara bir enkayib oyni ko'tamish,  
Oyga qo'shib sel-u soyni ko'tarmish.

Osmon bir enkayib oyni ko'tarmish,  
Oyga qo'shib sel-u soyni ko'tarmish.

Oyni o'z bag'rida ushlab qoldi-yu,  
Sel-u soy yosh bo'lib to'kildi duv-duv.

G'am emas, bu yoshlar quvonch yoshidur,  
Yer ila osmonning suv taloshidir...

Ko'zlarim hilolning dur ziragida,  
Hamon kutayapman bog' etagida.

Sitora, Sitora, sabrim qo'lingda,  
Kechikib, bo'saga qarzdor bo'lding-da ...

## TULPORIM

Bilmay qoldim ne bo'ldi,  
Yo yanganing xatosi.  
Gul qizini chaqirsam,  
Chiqib keldi otasi.

Qarib esin yegan chol,  
Deydi, bu ish ishmasmish.  
Qancha yaxshi ko'rsam ham  
Gul qizini bermasmish...

Zirillaydi yuragim,  
Endi qandoq qilay man.  
O'lganimni kunidan  
Qiziga baxt tilayman.

Ot tuyog'i dastidan  
Gumburlaydi daralar.  
Yorimni olib qoldi  
Qop-qora tun qarg'alar...

---

Suruv otlar ichida  
Jonom uloq bo'ldi-ey.  
Qo'lin niqtab g'animlar  
Bir miriqib kuldi-ey.

Chuh, o'zimning tulporim,  
Endi uyga qaytamiz.  
Onam aytdi, qishloqda  
Ko'p ekan bo'y yetgan qiz.

Chuh, o'zimning tulporim!



## OY YETDI ADOQQA...

Oy yetdi adoqqa osmonni suzib,  
So'ng yulduzni oldi bittalab uzib.  
Mening-chi, yuragim qushday potirlar –  
Tushimga kirgandi Muhammad Yusuf.

Jilmayib turardi, ko'zlarda mehr,  
Ularda yo'q edi zarracha aldoq.  
Yastanib yotardi poyimizda qir,  
Atrof alvon edi – lolaqizg'aldoq.

Derdi: gul so'zlarni behuda to'kma,  
Hikmat durlarin tuz har bir yozishda.  
Gar yoza olmasang ilhomni so'kma,  
U mening qalbimni olgan farishta.

Yelkamni bosadi so'zlarin yuki,  
Bir yukki, salmoqdan oyog'im titrar.  
Bir yukki, gar uni ko'kka ko'tarsam,  
Chokidan so'kilib ketar bulutlar.

---

Ustoz! Kunda meni bo‘yi mast qilar,  
Ko‘ksimda barq urgan–siz ekkan rayhon.  
Meni deb bog‘larda qumrilar yig‘lar,  
Siz yo‘qsiz, atrofga boqarlar hayron..

Har tong rayhon isi hovlimni tutar,  
G‘aflat devorini kiradi buzib.  
Ohular erkalab ohista turtar,  
Tushimga kiradi Muhammad Yusuf...



## FIDOYILIK

*Qatag'on qurbanlariga*

Telba dedilar uni,  
Qo'l bigizlab kulishdi.  
Axiyri sevganidan  
Ayirmoqchi bo'lishdi.

Nodonlarning ko'ziga  
Dono ko'rinur yomon...  
Ushoqdek gavdasini  
Otdilar Sibir tomon...

Sil o'pkasin ayamay,  
Qor kurar belkurakda.  
Lekin uning sevgisi  
Yashayverdi yurakda.

Umrin zavol etdilar,  
Asalga tomdi og'u.  
Qayinazorlar ichida  
Umrini o'tkazdi u...

Tuproq bo'ldi so'ng tani,  
Qabri boshida archa –  
Unib chiqdi notanish:  
Hayron, lol qoldi barcha.

Qanday izohlash kerak,  
G'aroyib holga o'xshar:  
Archaning tani – terak,  
Shoxlari tolga o'xshar.



## **MING YIL OLDIN...**

Ming yil oldin bir daraxt edim,  
Musichaga sordan himoya.  
Ko'ngli bo'sh-u saboti metin,  
Dehqonlarga bo'lardim soya.

Yarmim esa suv edi zilol,  
Oqar edim soylarda sokin.  
Aksimda "oh" urganda hilol,  
Sitilardi mavjlarim choki...

Mayli... yana ming yillardan so'ng  
Daraxt bo'lay, tanim oqlansin.  
Men roziman!  
Faqat hissiz, to'ng  
Tosh bo'lishdan Xudo saqlasin...

## DARYO

Daryoga tikildim, go'zal daryoga,  
Eng toza hislarim qo'zg'oldi bir zum.  
Eng nafis mavjini poyimga to'shab,  
Daryo shivirladi: ko'zlariningni yum ...

Kiprik qoqmoqqa vaqt topmadim bir on,  
Daryo suluq qizday etardi araz.  
Sen meni tushungin, axir, daryojon.  
Bunday go'zallikdan ko'z yumib bo'lmas...

O'ynoqi to'lqinlar dilim dilbari,  
Qaniydi bag'rida qolsaydim mangu.  
Yuzimni yuvardim, yuvganim sari  
Qitig'i kelganday qiqirlardi suv...

## TRAMVAYGA RAHMIM KELADI

Mening tramvayga rahmim keladi,  
Kishanlangan sherdai tutqun, bechora.  
U dunyoni temir iz deb biladi,  
Umri o'tar shunda, kunda ovora.

Ikkimizga rahmim kelar, sevgilim,  
Birga qarshilaymiz bahor-u kuzni.  
Lekin ayrılıqdan bag'rimiz tilim,  
Ko'rmagandir dunyo bizdek yolg'izni.

Bizni kim tushunar, ayt, o'zimizdek,  
Umrimiz iz bo'ldi uzun, yonma-yon.  
Sho'rlik tramvayning bir juft izidek,  
Kesisha olmaymiz bizlar  
hech qachon...



## **OSHIQ EDIM...**

Oshiq edim, yo'l boshida turgan edim,  
Xayolingga ko'z yoshimni surgan edim,  
Dardlarimni yig'ib-yig'ib yurgan edim –  
Xitob bo'ldi.

Bir necha kam o'ttizni ham yashab qo'ydim,  
Bilib-bilmay bu savdoni boshlab qo'ydim.  
Yuragimni ishq o'tiga tashlab qo'ydim.  
Tutab bo'ldi.

Er yigitga yarashmaydi yig'lash dedim,  
Ko'ksimdag'i dardlarimni "sarkash" dedim,  
Bo'g'zimga bir urildi-yu so'ng bo'ldi jim.  
O'z ishini o'tab bo'ldi.

Oshiq edim, yo'l boshida turgan edim,  
Oy nuriga ko'z yoshimni surgan edim.  
Sog'inchimni yig'ib-yig'ib yurgan edim,  
Ko'rmaysanmi, bevafo yor,  
Kitob bo'ldi...

## EY DO'ST

Ortimdan malomat qilmangiz, ey do'st,  
Borimga nadomat qilmangiz, ey do'st.  
Shundoq ham yuragim urmoqda bejo,  
Siz uni bepichoq tilmangiz, ey do'st.

Ko'zingiz ko'zimdan yoshlarni so'rар,  
Kelajagim g'amli, zalvorli ko'rар.  
Bilsangiz, har inson ekkanin o'rар,  
Ertamni karomat qilmangiz, ey do'st.

Bu yurakka hech kim qo'lin solmagan,  
Ko'nglimni bir inson topa olmagan.  
Nazm ham otamdan meros qolmagan,  
Mening she'rlarimdan kulmangiz, ey do'st.

Dunyoda Xudodan mehribonroq yo'q,  
Yilda yegan to'q-u, kunda yegan suq.  
Shundog'am xatolar yelkamdagи yuk,  
Bo'ynimga boshqa yuk ilmangiz, ey do'st...

## KUZ

Keng samoning bag‘riga sig‘may,  
Ikki bulut xezlanar birdan.  
Qilichbozlik boshlanar ko‘kda,  
Olam cho‘chib tushar ur-surdan.

Otash-olov xanjari bilan  
Tila boshlar bir-birin jonin.  
Zamin uzra shovullab shu dam  
To‘kiladi bulutlar qoni.

Na’ra tortgan yarador bulut  
Gumburidan titraydi tog‘lar.  
Bir zumgina yonboshlaydi-yu,  
Ukpar bilan yarasin bog‘lar.

Jang ham tugab, samo yorishar,  
To‘ng bulutlar yana bo‘lar oq.  
So‘ng sulh tuzar, sulhning ramzi –  
Oq bulutni qilishar bayroq.

Bir-birini quchoqlab, suyub,  
Yo‘l olishar tog‘ning boshiga.  
Daraxtlar ham ko‘ylagin yechib,  
Yoyib qo‘yar zamin to‘siga...

## QISH

Bo'shab qoldi laylaklar ini,  
Qish-qishligin endi boshladi.  
Ko'nglidagi bor niyatini  
Yer yuziga sepib tashladi.

Yo'l bo'yida o'tirib toshga,  
Qor parchalar yorug' kuy chalar.  
Oq do'ppisin bostirib boshga,  
Ko'chalarga boqar uychalar.

Dalalarni bezab chinniday,  
To'ldiradi ko'nglining yarmin.  
Oq libosli yangi kelinday  
Bir entikib oladi zamin...

## **SURUR**

Juda ko'p bor gulladi o'rik,  
Sanog'idan adashib ketdik.  
Namxush bog'da ikkimiz yana  
Nafas olmay tunni kuzatdik.

Osilgancha o'rik shoxida  
Hilol tongning qo'shig'in aytar.  
Ilk shafaqning nurli rohida  
Mast turnalar Vatanga qaytar.

Bu yil yana gulladi o'rik,  
Yomg'ir yog'ib o'tgan kechada.  
Yuragim gul yozdi mening ham,  
Lek bilmayman – yoshim nechada.

## O‘YLAR

Bir zum yashab ko‘zning qaboqlarida,  
Yigirma olti yil o‘zni tuzatdim.  
Oq ko‘ngilli qishning oyoqlariga  
Yigirma oltita kuzni uzatdim.

Yigirma olti bor gulladi daraxt,  
Shuncha bor turnalar ko‘kka iz soldi.  
Shuncha yil kaftimda o‘ynayotgan vaqt  
O‘ynab-o‘ynab shuncha umrimni oldi.

Yillar yildirimdir, tezobdir kunlar,  
Nafas rostlamoqqa topilmas bir zum.  
Men esa shu yoshning qirg‘oqlarida  
Hamon izlayapman o‘zimni o‘zim.



## KUZAK SHAMOLLARI

Kuzak shamollari uyg'ondi dilgir,  
Hovuzlar yuziga boyladi xino.  
Azizim, sog'insang yuragingga kir,  
Shul dam xayolingda bo'lurman paydo.

Hijron-u hasratlar bunda ne kerak?  
Qaragin, bu oqshom naqadar mayin.  
Tobora tiniqib urmoqda yurak,  
O'sha dam yodingga tushgani sayin.

Ishq vasfi hamrohdir oshiq ahliga,  
(Kim bilsin, bu balki oddiy havasdir.)  
Lekin, to yetkuncha yurak shahriga,  
Yo'llarda adashib qolmasang basdir.

Azizim, bu kuzga qilmagin parvo,  
Bu kuzning niyati boshqadir, boshqa...  
Kel endi, qalbingni qalbimga bergil,  
Bu yo'llar eltgaydir bizni quyoshga.

## DUNYODA NEKI BOR

Dunyoda neki bor – ismi-la go'zal,  
Tonglar ham nomi-la sut kabi oqar.  
Necha evrilsa-da taqdiri azal,  
Quyosh bir nom bilan chirog'in yoqar...

Hozircha hayot-u xayollar o'zga,  
Dillar ham sog'inchdan o'yilmagandir.  
Faqat... yurakdagi hislarimizga  
Muhabbat deya nom qo'yilmagandir.

\* \* \*

Yonmoqdadadir lablaring gul-gul,  
Yonmoqdadadir, lablaring – olov.  
Yonmoqdadadir tanim ham butkul,  
Yonayotgan lablaring – qalov.

Xo'p ajoyib bularning bari,  
Faqat qiynar birgina so'rov:  
Nechun o'tda yonganim sari  
Sochlaringma qo'nmoqda qirov?!

## MUHABBAT

Derazamni tirmalar shamol,  
Yolvoradi boshini qo'yib:  
Darichangni ochgin, ocha qol,  
Men ham unga boqayin to'yib.

Titrab ketar qo'ldagi surat  
(O, bu holat menga emas xos.)  
Va so'zlashga topadi jur'at:  
Shamollarga berma, iltimos...

Hamon tirnar oynani shamol...  
Yolvoradi surat jim turib...  
Mening yarmim shu shamol misol,  
Yarmim qolgan suratga kirib...



## MASLAHAT

Bolangizga she'r o'qib bering,  
Haq yo'lida, xalqona yo'lida.  
Axir Tangri nazari tushgan  
Yurt iqboli uning qo'lida.

Shiringina bo'lib yurganda,  
Nelarnidir xayol surganda,  
Sizdan mehr kutib turganda,  
Bolangizga she'r o'qib bering.

Gullayotgan gul – shona haqda,  
Vatan haqda yo ona haqda,  
Yo Mashrabi devona haqda  
Bolangizga she'r o'qib bering.

Tilagingiz bajo etganda,  
Baxning bo'yи ko'kka yetganda,  
Mehringiz bir jo'shib ketganda,  
Bolangizga she'r o'qib bering.

Yov ko'ksiga g'ulg'ula solsin,  
Olim bo'lib dunyoni olsin...  
Bir umrga yodida qolsin –  
Bolangizga she'r o'qib bering.

Gar quchsangiz ko'ksingiz to'lar,  
Qarang, ko'zi yulduzdek kular.  
Haq istasa Navoiy bo'lar...  
Bolangizga she'r o'qib bering.

Botirlarning safida yur deb,  
Shu elning ko'z o'ngida tur deb,  
Bobong – sohibqiron Temur deb,  
Bolangizga she'r o'qib bering.

Shu diyorning yashnashi uchun,  
Buyuk ishlar boshlashi uchun,  
Til va millat yashashi uchun!  
Bolangizga she'r o'qib bering!

## MUNDARIJA

Mo'jaz mo'jiza.....	3
Shukrona.....	5
Bahor.....	6
Ko'ngil sohili .....	8
Bir xat baxtdan nishonadir .....	9
Binafsha .....	11
Hikoya .....	12
Qo'shni qizcha .....	14
Sevgi .....	15
Taqqos .....	16
Taskin .....	17
Yigirma bir yoshga.....	18
Tomchilar .....	19
Asl ustoz .....	21
«Ketayapmiz yillar oralab».....	22
Balki... .....	23
Muddao .....	24
Sitora.....	25
Tulporim.....	26
Oy yetdi adoqqa .....	28
Fidoyilik .....	30
Ming yil oldin.....	32

Daryo.....	33
Tramvayga rahmim keladi .....	34
Oshiq edim.....	35
Ey, do'st .....	36
Kuz .....	37
Qish .....	38
Surur.....	39
O'ylari .....	40
Kuzak shamollari .....	41
Dunyoda neki bor .....	42
Yonmoqdadir lablaring gul-gul .....	42
Muhabbat .....	43
Maslahat.....	44

*Adabiy-badiiy nashr*

BEHZOD BIYBOLAYEV

ISHQ VASFI

*She'rlar*

Muharrir U. Qo'chqorov

Rassom O. Qozoqov

Badiiy muharrir A. Mamasoliyev

Texnik muharrir N. Suvonov

Nashriyot litsenziyasi №181. 08.12.11. Bosishga ruxsat  
2014-yil 20-yanvarda berildi. Bichimi 70x90  $\frac{1}{32}$ . Offset  
bosma usulida bosildi. «ArnoPro» garniturasi. Shartli  
bosma tobog'i 1,5. Nashr-hisob tobog'i 1,2. Adadi  
20 000 nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_\_

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi «ADIB» nashriyoti.  
100128. Toshkent. «O'zbekiston» ko'chasi, 16-uy.  
Tel: (371) 245-89-24.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasida chop etildi. 100000, Toshkent shahri,  
Buyuk Turon ko'chasi, 41.